SIYOSIY DISKURSDA RITORIK FIGURALARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING LISONIY TAHLILI

Ikromova Nilufar Akmal qizi
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0004-8368-0386

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosiy diskursda ritorik figuralarning lisoniy tabiati, ularning auditoriyaga ta’sir o‘tkazish mexanizmlari, kognitiv freym hosil qilish xususiyatlari va pragmatik imkoniyatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari hamda xalqaro chiqishlari misolida atroflicha tadqiq etilgan. Siyosiy nutq shunchaki ma’lumot yetkazish vositasi emas, balki jamiyatni ma’naviy-g‘oyaviy jihatdan safarbar qilish, davlat bilan xalq o‘rtasida ochiq inklyuziv muloqot tizimini va yangi ijtimoiy reallikni shakllantirish quroli ekanligi sotsiolingvistik va pragmalingvistik tahlillar orqali isbotlangan. Tadqiqot davomida konseptual metafora, antiteza, anafora, sintaktik parallelizm, xiazm hamda ritorik so‘roq gaplar kabi ekspressiv vositalarning siyosiy matnlardagi funksional-uslubiy o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Siyosiy diskurs, ritorika, manipulyatsiya, ritorik figuralar, pragmalingvistika, siyosiy metafora, kognitiv tilshunoslik, ijtimoiy safarbarlik, inson qadri, lingvistik neyromarketing.*

KIRISH

Jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning qaror topishi til birliklarini sof lisoniy qoliplardan chiqarib, ularni inson faoliyati, ongi, sotsial muhit va siyosiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganishni kun tartibiga qo‘ydi. Siyosiy muloqot o‘z mohiyatiga ko‘ra insoniyat sivilizatsiyasining eng murakkab verbal ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u hokimiyatni qo‘lga kiritish, uni qonuniylashtirish, saqlab qolish va ongni muayyan g‘oyalar yo‘nalishida boshqarish maqsadlariga xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda axborot oqimining shiddatli tus olishi, geosiyosiy transformatsiyalar va raqamli media makonining kengayishi siyosiy arboblardan o‘z nutqlarini strategik jihatdan mutaxassislik darajasida qurishni talab etmoqda. Shununig uchun ham siyosiy diskurs va uning doirasida qo‘llaniladigan ritorik strategiyalar bugungi kunda pragmalingvistika, sotsiolingvistika va kognitiv tilshunoslikning eng kesishgan nuqtasidagi dolzarb muammo hisoblanadi.

Siyosiy muloqotda muvaffaqiyatga erishish, tinglovchini o‘z ortidan ergashtirish va islohotlar dasturini xalq chillasi darajasida qabul qildirish bevosita ritorik figuralarning to‘g‘ri tanlanishi bilan bog‘liq. Ritorik figuralar klassik tilshunoslikda nutqning estetik jozibasini oshiruvchi badiiy stilistik bezak sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistik konsepsiyada ular tinglovchining ratsional (mantiqiy) fikrlarini chetlab o‘tib, emotsional va kognitiv ong ostiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatuvchi vositadir.

O‘zbekiston mustaqillik taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan bugungi davrda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida tub burilishlar sodir bo‘ldi. Bu jarayonning lisoniy arxitekturasi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqiy shaxsiyati va uning siyosiy muloqot uslubi o‘zbek siyosiy nutq madaniyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Avvalgi yillardagi akademik, quruq

rasmiy-byurokratik bayonchilik o‘rnini xalqchil, ochiq, pragmatik va o‘ta emotsional ta’sir kuchiga ega ritorik diskurs egalladi. Ushbu o‘zgarishlarni lisoniy qonuniyatlar doirasida tizimli-kognitiv tahlil qilish, o‘zbek tilining pragmatik imkoniyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbek tilshunosligida diskurs tahlili va pragmalingvistika masalalari professor Sh. Safarov [1, 12-b.], A. Mamatov [2, 28-b.] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Professor Sh. Safarov muloqot tizimida pragmatik omillarning, so‘zlovchi va tinglovchi lisoniy kompetensiyasining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Ammo shunga qaramay, mustaqillikning yangi davrida shakllangan o‘zbek milliy siyosiy diskursining o‘ziga xos konseptual xususiyatlari, xususan, Davlat rahbarining nutqlaridagi ritorik qatlam kognitiv tilshunoslik qonuniyatlari asosida bugungi kungacha to‘liq va tizimli tadqiq etilmagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy nutqlari, Oliy Majlis palatalariga taqdim etgan Murojaatnomalari, BMT Bosh Assambleyasining yuqori darajadagi sessiyalaridagi ma’ruzalari hamda hududlarga tashriflari davomida faollar bilan uchrashuvlardagi chiqishlari lingvo-pragmatik jihatdan tahlil qilinganda, ularda o‘ziga xos va milliy zaminga ega bo‘lgan konseptual-ritorik tizim mavjudligi yaqqol ko‘rinadi. Davlat rahbarining nutqiy strategiyasi rasmiy-byurokratik qoliplardan uzoqligi, tinglovchi bilan bevosita va samimiy muloqotga kirisha olishi, murakkab ijtimoiy-siyosiy islohotlarni oddiy va ekspressiv shaklda xalq ongiga yetkazishi bilan xarakterlanadi. Prezident diskursida eng ko‘p qo‘llaniladigan va pragmatik samara beradigan ritorik figuralarni tahlil qilish orqali o‘zbek tilining amaliy salohiyatini baholash mumkin.

Siyosiy lingvistikada metafora shunchaki stilistik bezak yoki o‘xshatish emas, u eng murakkab ijtimoiy-siyosiy va makroiqtisodiy muammoni oddiy xalq tushunadigan kognitiv maydonga o‘tkazuvchi o‘ta kuchli quroldir. Prezident diskursida, xususan, *"Vatan — ulug‘ binoning me’morchiligi"* modeli faol amalga oshiriladi. Davlat rahbarining *"Biz hammamiz birgalikda, fidokorona mehnatimiz bilan Yangi O‘zbekiston poydevorini qurmoqdamiz"* degan gapi bunga yorqin misoldir [3, 14-b.]. Bu yerda davlatning strategik rivojlanish bosqichi me’morchilik va muhandislik freymiga ko‘chiriladi. Oddiy inson ongida "bino qurish" tushunchasi aniq ketma-ketlik, jipslashuv va og‘ir mehnatni tasavvur qiladi. "Poydevor" konsepti esa ijtimoiy ong ostiga islohotlarning uzoq muddatliligi, mustahkamligi va barqarorligi g‘oyasini singdiradi.

Yana bir faol model — *"Islohot — to‘xtovsiz shiddatli kinetik harakat"* modelidir. Nutqlardagi *"Islohotlarimiz endi ortga qaytmaydigan muqarrar tus oldi va biz taraqqiyot yo‘lidan hech qachon burilmaymiz"* kabi jumlalar statik, sekin kechuvchi byurokratik o‘zgarishlarni yuqori tezlikdagi dinamik harakat qiyofasida ko‘rsatadi. Bu tinglovchida islohotlarning intensivligiga ishonch va unga moslashish zarurati hissini uyg‘otadi. Jamiyatdagi nuqsonlarni ko‘rsatishda esa *"Ijtimoiy illat — halokatli biologik kasallik / balo"* modeli ishlatiladi. Masalan: *"Jamiyatimiz tanasiga chuqur ildiz otgan korrupsiya balosiga qarshi barchamiz keskin kurashmasak, maqsadimizga erisha olmaymiz"*. Korrupsiyaning "balo" yoki "tanadagi kasallik" sifatida tasvirlanishi jamiyat a’zolarida ushbu illatga nisbatan tabiiy biologik jirkanish, qo‘rquv va uni tezroq kesib tashlash kerakligi haqidagi kollektiv immunitetni faollashtiradi.

Siyosiy diskursda matnning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi uning intonatsion-ritmik tuzilishiga ham bog‘liq. Nutqda gap boshida muayyan so‘z yoki birikmalarning takrorlanishi (anafora) va bir xil sintaktik qoliplarning ketma-ket kelishi (parallelizm) matnning jozibasini oshiradi va uning yodda qolish darajasini maksimal darajaga ko‘taradi. Davlat rahbarining chiqishlaridagi *"Har bir islohot, har bir qonun, har bir qaror – eng avvalo inson qadrini ulug‘lashga va xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishi shart"* degan tizimli talabni ko‘rishimiz mumkin. *"Har bir"* so‘zining ketma-ket uchtalik sintaktik parallelizm blokida takrorlanishi davlat siyosatining o‘ta qat’iy, hech bir istisnosiz antropotsentrik xarakterga ega ekanligini anglatadi. Ohangdagi ritm tinglovchida psixologik qat’iyat va ishonchni muhrlaydi.

Xalqaro miqyosdagi tahlilda, xususan, Prezidentning global chiqishlarida *"Markaziy Osiyo"* geo-konseptining nutqiy arxitekturada tizimli anafora sifatida ishlatilishi kuzatiladi. Bu uslub mintaqaning yaxlit va bo‘linmas kognitiv obrazini dunyo hamjamiyati ongida shakllantirishga yo‘naltirilgan tashqi siyosiy brending vazifasini bajaradi.

Shavkat Mirziyoyev siyosiy diskursining eng xarakterli jihatlaridan biri — bu keskin, murosasiz va inqilobiy xarakterga ega bo‘lgan antiteza (zidlash) vositalarining qo‘llanilishidir. Davlat rahbari jamiyatni transformatsiya qilish uchun eski tizim qoliplari bilan yangi boshqaruv falsafasini binor oppozitsiya shaklida to‘qnashtiradi: *"Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak, xalq davlat idoralariga emas"*. Ushbu antiteza va xiazm (sintaktik inversiya) figurasi o‘zbek xalqining ongiga asrlar davomida singib ketgan "davlat — xo‘jayin, xalq — xizmatkor" degan sovet va feodal qarashlarini ramziy va lisoniy jihatdan batamom parchalaydi. Yangi demokratik paradigmani ijtimoiy ong ostiga singdiradi va uning jamiyatdagi mavqeini qonuniylashtiradi.

Olingan lingvistik natijalar va tahlillar asosida siyosiy diskursning ritorik tabiati bo‘yicha bir qator muhim xulosalarni shakllantirish lozim. G‘arbiy diskursiv tadqiqotlar maktabida siyosiy muloqotdagi ritorik figuralar deyarli har doim manipulyatsiya, hokimiyat turg‘unligini ta’minlash, raqibni lisoniy neytrallash va ommani chalg‘itish vositasi sifatida salbiy planda talqin etiladi [4, 112-b.]. Biroq, Yangi O‘zbekiston davrida shakllangan Davlat rahbarining siyosiy diskursi tahlili ushbu g‘arb konsepsiyalarini milliy zamin asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Shavkat Mirziyoyev ritorikasida ritorik figuralar manipulyativ emas, balki "pedagogik-motivatsion" hamda "kognitiv adaptatsiya" funksiyalarini bajaradi.

Kognitiv adaptatsiya deganda biz murakkab, quruq, ilmiy-iqtisodiy konseptlarning (masalan, diversifikatsiya, kambag‘allikni qisqartirish, mahalla drayveri) metaforik modellar va sodda xalqchil ritorika yordamida oddiy fuqarolar ongiga moslashtirilishini tushunamiz. Bu esa pragmalingvistikada siyosiy nutqning faqat hokimiyat uchun kurash emas, balki jamiyatni ma’naviy, iqtisodiy va sotsial jihatdan modernizatsiya qilishdagi eng asosiy motivatsiya manbai ekanligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy diskursdagi ritorik figuralar va stilistik modellar sof lisoniy yoki estetik hodisa bo‘lmay, sotsiomafkuraviy, kognitiv va pragmatik xarakterga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqiy korpusida ritorik figuralar tizimli strategik xarakterga ega bo‘lib, ular "Yangi

O‘zbekiston" mafkuraviy konseptlarini xalq ongida qonuniylashtirish va formatsiyalash uchun xizmat qiladi. Davlat rahbarining ritorikasida g‘arbga xos agressiv va manipulyativ uslub emas, balki milliy mentalitet, sotsial hamjihatlik va inklyuziv muloqotga asoslangan "ijtimoiy safarbarlik" ritorikasi yetakchilik qiladi. Siyosiy diskursning ritorik neytral bo‘lishi siyosat dunyosida samarasizdir. Muvaffaqiyatli siyosiy muloqot tizimlari yuqori darajadagi lisoniy ekspressivlik va puxta o‘ylangan ritorik arxitekturaga ega bo‘ladi, ularni ilmiy o‘rganish o‘zbek tilining pragmatik jozibasi va imkoniyatlarini dunyoga ko‘rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. – 240 p.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir, 2022. – 416 b.
3. Mamatov A. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 180 b.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 287 b.
5. Van Dijk T.A. Discourse and Manipulation // Discourse & Society. – 2006. – Vol. 17(3). – P. 359–383.